

GEORG FRIDRIK GENDEL IJODIDA SHARQ MUSIQASINING TA'SIRI

Andijon Davlat Universiteti Spor va san'at fakulteti 1-kurs talabasi

Tohirjonova Mavluda Mansurjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barokko davrining buyuk bastakori Georg Fridrik Gendelning ijodiy faoliyati hamda uning musiqasida Sharq motivlarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Ayniqsa, bastakorning oratoriyalari va opera asarlarida Sharq madaniyati, timsollar, ritmlar va harmoniyalar qanday aks etganiga e'tibor qaratiladi. Maqola Gendelning g'arbiy musiqa an'alarini Sharqona ohanglar bilan uyg'unlashtirish mahoratini ochib beradi.

Kirish: XVIII asrda Yevropa musiqa madaniyati yangi shakllanish bosqichiga kirdi. Ayniqsa, barokko davri bastakorlari musiqiy ifoda vositalarini boyitish va kengaytirishga intildilar. Bu jarayonda Sharq madaniyatiga bo'lgan qiziqish kuchayib, bastakorlar o'z asarlarida Sharqqa oid mavzu, obraz va musiqiy elementlardan ilhomlana boshladilar. Sharq — G'arb tasavvurida sirli, ekzotik va go'zallik bilan bog'liq makon sifatida qaralgan. Aynan shunday fon ostida Germaniyada tug'ilgan, lekin ijodiy faoliyatining asosiy qismini Angliyada o'tkazgan buyuk bastakor Georg Fridrik Gendel ham o'z asarlarida Sharq motivlariga alohida e'tibor qaratgan.

Uning oratoriya va opera janridagi asarlarida qadimgi Sharq tarixiy voqealari, diniy syujetlari va obrazlari musiqiy sahnalashtirish orqali o'z aksini topadi. Gendel Sharq madaniyati va musiqasiga bo'lgan munosabatni faqatgina tashqi timsollar orqali emas, balki musiqiy ohang, ritm va orkestrlash orqali ham ifodalagan. Ushbu maqola ana shu ijodiy yondashuvni tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda Gendel asarlarida Sharq musiqasi unsurlarining namoyon bo'lishi chuqur yoritiladi.

Asosiy qism:

I. Gendelning hayoti va ijodiy faoliyati

Georg Fridrik Gendel (1685–1759) Germaniyaning Halle shahrida tugʻilgan va dastlabki musiqa taʼlimini u yerda olgan. U yoshlik chogʻidayoq cherkov musiqasi bilan tanishib, organ chalishni mukammal oʻrgangan. 1703-yildan boshlab Gamburgda opera bastalashni oʻrgangan va birinchi operasi "Almira"ni sahnaga qoʻygan. Gendel 1706–1710-yillarda Italiyada boʻlib, bu davr uning ijodiy uslubining shakllanishida muhim rol oʻynagan. U Italiyaning Rim, Florensiya va Venetsiya shaharlarida koʻplab oratoriyalar, kantatalar va operalar yozgan.

1710-yildan Angliyaga koʻchib oʻtgan Gendel tez orada London musiqiy sahnasida yetakchi bastakor sifatida tanildi. U 1712-yildan boshlab Angliyada doimiy yashagan. Gendel ingliz qirollik saroyi uchun koʻplab asarlar, jumladan kronsial marosimlarga bagʻishlangan musiqa, oratoriyalar va mashhur "Water Music"ni yozgan. U 1727-yilda Angliya fuqaroligini qabul qilgan. Gendel Londonda tashkil etilgan qirollik opera teatrining asoschilaridan biri boʻlib, u yerda italiyalik uslubdagi operalar qoʻygan. Hayotining soʻnggi yillarida Gendel koʻr boʻlib qolgan boʻlsa-da, ijod qilishdan toʻxtamagan. Uning eng mashhur oratoriyasi "Messiah" (1741) asarlari bugungi kungacha mashhurligini saqlab kelmoqda.

II. Gendel va Sharq motivlariga qiziqish

XVIII asrda Yevropada Sharqqa boʻlgan qiziqish ortib borgan. Odamlar Sharqni sirli, ekzotik va romantik bir makon sifatida tasavvur qilishgan. Bu tasavvurlar musiqa, adabiyot va teatrda ham keng oʻrin olgan. Gendel oʻz davrining madaniy tendensiyalariga mos ravishda Sharq mavzulariga asoslangan asarlar yaratgan. U diniy va tarixiy manbalardan ilhomlanib, oʻzining dramatik va musiqiy tasvir vositalari yordamida Sharq obrazlarini boyitgan.

Uning "Giulio Cesare in Egitto" (Misrda Yuliy Tsezar), "Solomon", "Belshazzar" va "Israel in Egypt" kabi oratoriya va operalarida qadimgi Misr, Bobil, Yahudiya, Fors va boshqa Sharqiy madaniyatlarga oid motivlar mavjud. Bu asarlarda u Sharqiy hukmdorlar, paygʻambarlar va tarixiy voqealarni gʻarbiy musiqiy uslubda aks ettiradi. Ayniqsa, "Belshazzar" asarida Bobil shohi va yahudiylar oʻrtasidagi tarixiy ziddiyatlar musiqiy

dramatizm bilan ifodalanadi. Gendel Sharq mavzularidan foydalanishda faqat dekorativ maqsadlarni ko'zlamaydi, balki tarixiy va ma'naviy mazmunni chuqur musiqiy ifoda etadi.

III. Sharq musiqasining elementlari Gendel asarlarida

Gendel Sharq musiqasini to'g'ridan-to'g'ri eshitmagan bo'lishi mumkin, ammo u G'arbdagi tasavvurlar asosida Sharqona musiqiy ohanglar yaratishga intilgan. U quyidagi elementlar orqali Sharqona ruhni yaratgan:

- Maqomga o'xshash ohanglar: Gendelning ayrim aria va xorlarida yarim tonli harakatlar, doimiy pedal notalar va improvizatsiyaga o'xshash melodiylar uchraydi. Masalan, "Solomon" oratoriyasidagi ayrim aria va intermediyalari Sharqona ruhiyatni ifoda etadi.

- Sharqqa xos cholg'ular: Arfa, timpani, truba kabi cholg'ularni u Sharqiy atmosfera yaratish uchun ishlatgan. Bu cholg'ular orqali u zohiriy dabdaba, dramatizm va ruhiy yuksaklikni ifodalagan.

- Ekzotik ritmlar: Gendel ba'zi operalarida noodatiy ritmlar, tez-tez o'zgaruvchi o'lchovlar orqali dramaturgiyani kuchaytirgan. "Israel in Egypt" oratoriyasida ritmik murakkabliklar orqali xalq azoblari va najot mavzusi tasvirlanadi.

Sharq musiqasiga oid bu elementlar Gendel musiqasining o'ziga xos dramatik va emotsional kuchini oshiradi.

IV. Gendelning Sharqqa bo'lgan musiqiy yondashuvi

Gendel Sharqni faqat tarixiy kontekstda emas, balki musiqiy-estetik vosita sifatida ham qabul qilgan. U Sharq obrazlaridan sahnaviy dramatizmni kuchaytirish uchun foydalanadi. Bu obrazlar orqali u kuch, jasorat, donoilik va fojiani yoritadi. Masalan, "Solomon" oratoriyasida Sharq donishmandi timsoli orqali ideal hukmdor obrazini yaratadi.

Uning Sharqqa bo'lgan musiqiy yondashuvi murakkab va chuqur: u Sharqni ekzotik manzara sifatida emas, balki universal ma'nolarga ega timsollar manbai sifatida ko'rgan.

Bu yondashuv orqali u o'z asarlarida nafaqat g'arbiy, balki insoniyatning umumiy qadriyatlarini musiqiy ifodalashga erishgan.

Xulosa: Georg Fridrik Gendel ijodi XVIII asr g'arb musiqa madaniyatida Sharq motivlarining paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Gendel Sharq obrazlari orqali musiqiy drammatizm va estetik kuchni oshirgan, tinglovchilarda ekzotik va falsafiy ruhiyat uyg'otgan. Bugungi kunda ham uning operalari va oratoriyalarida Sharq motivlari musiqiy va madaniy muloqotning yorqin namunasi sifatida qadrlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlar:

1. Hogwood, C. Handel. Thames & Hudson, 2007.
2. Burrows, D. Handel and the English Chapel Royal. Oxford University Press, 2005.
3. Sadie, S. The New Grove Dictionary of Music and Musicians, Macmillan, 2001.
4. Taruskin, R. The Oxford History of Western Music. Oxford University Press, 2005.
5. <https://www.britannica.com/biography/George-Frideric-Handel>
6. <https://www.baroquemusic.org/bqxhandel.html>